



KASB-HUNAR MAKTABLARIDA O'QUV AMALIYOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH (30710301- LABORANT – EKOLOG YUNALISHI MISOLIDA)

: *Murotova Husnobodxon Mamadaliyevna*
Angren shahar 2-sonli kasb-hunar maktabi
ishlab chiqarish ta'limi ustasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb-hunar maktablarida o'qitish samaradorligini oshirishda amaliyot darslarini o'rni haqida fikr yuritilgan. Amaliyot darslarini kasb egallashdagi o'rni yoritib berilgan

Kalit so'zlar: Kasb mahorati, kasbiy ta'lim, dars, ta'lim va , ekologiya, ekologik omillar

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z natijasini bermoqda. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda o'z kasbini mohir ustasi bo'lishlarida kasb-hunar maktablarini o'rni beqiyosdir. Inson hayotda ilm, kasb-hunar o'rganishga muhtoj. Shuning uchun ham inson beshikdan qabrgacha ilm olish, kelajak avlodga yetkazib berishga buyurilgan.

Kasb – maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar majmuasini egallagan, jismoniy imkoniyat, aqliy qobiliyat va huquqlari ta'minlangan mehnat faoliyati (mashg'uloti)ning turidir;

Kasb-hunar maktablarida ishlab chikarish ta'limi ustalarining oldida turgan asosiy vazifasi o'quvchilarni Vatanimizni sevadigan, o'z bilimi va iste'dodiga suyanadigan hamda mustaqil ravishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'z kasbini ustasi yetuk kadr qilib tarbiyalashdan iborat. Mazkur vazifalar samarali amaliyot darslari orqali amalga oshiriladi.

30710301- Laborant- ekolog yo'nalishida tahsil oladaigan o'quvchilarga bilim berishda tarmoq ta'lim standartlari ,namunaviy o'quv reja asosida ishchi o'quv reja,namunaviy o'quv dasturi asosida ishchi o'quv dasturi tayyorlanadi.O'quv amaliyotlari birinchi bosqichda “Ekologik nazorat va atrof muhit muhofazasida chang va gazlar tahlili laboranti” mutaxassisligi bo'yicha amaliyot darslari tashkil etiladi , ikkinchi bosqichida esa “Ekologik baholash ,nazorat ,ekspertiza va monitoring olib borishda spektral tahlil laboranti ishi “ sir sinoatlari o'rgatiladi.Ishchi o'quv dastur laborant –ekolog kasb sirlarini o'rgatishda oddiydan murakkabga tomon tuzilgan bo'lib, dastavval modda, moddalarning xossalari, ekologik til, eng muhim ekologik tushunchalar va qonunlar, nazariyalar, ekologik ishlab chiqarish texnologiyasi, ekologik sanoati erishgan yutuqlar, tabiat va jamiyatda ekologik toza



maxsulotlarni ishlab chiqarishning o'rni, ta'siri haqidagi bilimlarni berish va amaliy malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat beriladi.

“Ekologiya” yunoncha so'z bo'lib, “**yecos**”- uy, makon, «**logos**» - “fan” degan ma'noni anglatadi. Bu atamani fanga birinchi bo'lib nemis biolog Ernest Gekkel 1866 yilda fanga kiritgan. Ekologiya mustaqil fan sifatida XX asrning boshlarida ajralib chiqqan.

Ekologiya- tirik organizmlarning (o'simlik, hayvonot, mikroorganizmlar dunyosi va inson) atrof-muhit bilan murakkab o'zaro munosabatlarini, birgalikda yashash, bir-biriga nisbatan o'zaro ta'sir ko'rsatish, yashash uchun kurash qonuniyatlarini o'rganadi, qolaversa, o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sirlar oqibatida paydo bo'lgan ekologik noqulayliklarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi. Inson kelajagi tabiatni saqlanishiga bog'liq. Bu borada laborant-ekologlarni vazifasi beqiyos ahamiyatlidir. Dastur asosida har bir mavzuni o'qitilishi natijasi samarasini beradi.

O'quv dasturda o'quvchilar bilan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlariga, har bir mavzuga tegishli savol va topshiriqlarni yechishga katta ahamiyat beriladi, tegishli bo'limlar tugatilgandan so'ng olingan nazariy bilimlar masalalar yechish yoki test sinovlarini bajarish orqali mustahkamlab boriladi.

Ta'lim-tarbiyaning birlamchi asosi dars hisoblanadi. Darsning dastlabki ko'rinishlari bundan 400 yil avval paydo bo'lgan. Ta'lim-tarbiya beruvchilarning vazifasi davlat tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida darsni tashkil etish va o'quv-mavzu rejada ko'rsatilgan bilimlarni ta'lim oluvchilarga didaktikaning barcha tamoyillaridan kelib chiqib, bir qator pedagogik usullardan va o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib yetkazib berishdan iborat.

Amaliyot darslari - bu guruhda aniq o'quv maqsadlariga erishish uchun belgilangan (odatda 80 minut) vaqt oralig'ida ishlab chiqarish amaliyoti ustasi rahbarligida o'quvchilar bilan olib boriladigan, mazmuni mantiqan butun va yaxlit bo'lgan asosiy ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Darsning maqsadi, mazmuni, turi va unga ajratilgan vaqt Davlat ta'lim standartlari (o'quv dasturi va reja hamda darslik) asosida belgilanadi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining amaliyot darslarini samarali tashkil etishida har bir guruhda o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishiga, amaliyot darsi qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishiga, o'quv fanining tavsifi o'tilayotgan mavzuning mazmuniga qarab turli usulda va vositalar yordamida olib borilishiga va uzluksiz ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim berilishiga va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratishga qat'iy rioya qilishi shart. Amaliyot darslari ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, o'quvchining shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda tashkil etilishi shart.



Ishlab chiqarish ta'limi ustalari amaliyot darslarini tashkil etishda tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini belgilab olishi, dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, yangi materiallarni qanday o'tish, qanday tamomlash, ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallardan qanday foydalanish kabilarni oldindan hal qilib olmog'i;

❖ har bir amaliyot darida nazariy bilimlarni amaliy bilimlar bilan uzviy bog'langanligi;

❖ har bir amaliyot darslari kasb-hunar maktablari amaliyot xonalarida AKT vositalari va ko'rgazmali vositalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak;

❖ har bir dars mavzuga mos usul va uslublardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi;

❖ dars uchun ajratilgan vaqt va uning daqiqalaridan tejamkorlik va unumli foydalanish;

❖ dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bo'lishi, o'quvchi passiv tinglovchiga aylanmasligi;

❖ o'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil O'zbekistonda ro'y berayotgan o'zgarishlardan o'quvchilarni habardor etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Otaboyev Sh. va boshqalar. Atmosfera havosining ekologiyasi va salomatlik muammolari. T., 2008.

2. To'xtayev A.S. Ekologiya. Pedagogika institutlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. T., "O'qituvchi", 1998. -192 b.

3. Ta'lim to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunni. Me'yoriy hujjatlar to'plami. T., "Istiqlol", 2004.

4. Turdiqulov E., Turdiqulov U. Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti. T., "Fan", 2005.

5. Otaboyev Sh., Haydarova O., Hidoyatova Z. Ekologiya, salomatlik va umrboqiylik sirlari. T., 2010.